

# YANGI O'ZBEKISTON: YOSHLARGA YANGICHA DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH

*Sh. Kenjayev*  
*Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Gulistan State University,*  
*shavkatjon kenjayev@mail.ru*  
*Tel: +998906807907*

**Annotatsiya.** Maqolada Yangi O'zbekiston yoshlariga yaratilayotgan imkoniyatlar, yoshlarning siyosiy hayotga aralashuvi, ularning faoliyati, g'oyalari va shijoatini o'zida aks ettirgan Yoshlar parlamentining amalga oshirgan ishlari yoritilgan. Shuningdek, unda Yoshlar parlamentining faoliyati va maqsadlari o'rganilgan bo'lib, yoshlarning siyosiy jarayonlarda faolligi haqida mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Xalqaro yoshlar kuni, BMT Bosh Assambleyasi, deputatlik nazorati, Xalqaro yoshlar masalasi bilan shug'ullanuvchi Vazirlar konferensiyasi, Yoshlar parlamenti faoliyati, komissiya a'zolari, Yoshlarga oid davlat siyosati, Oliy Majlis Senatining Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi, Respublika Yoshlar markazi.

"Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo'lidan ma'lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi o'sha davlatda yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga bog'liq. Shu ma'noda, O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi" 1.1999-yil 17-dekabrda BMT bosh Assambleyasi o'zining 54/120-sonli rezolyutsiyasi (qarori) bilan Xalqaro yoshlar masalasi bilan shug'ullanuvchi Vazirlar konferensiyasining 12-avgustni "Xalqaro yoshlar kuni" deb e'lon qilish haqidagi tavsiyasini ma'qulladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6017-sun farmoniga muvofiq yoshlarga berilayotgan e'tibor tubdan o'zgartirildi. Endilikda yoshlarga o'z iste'dodlarini yuzaga chiqarish uchun barcha shart-sharoitlar ta'minlab berilmoqda. Ayniqsa, PF-6017-sun farmoni amalda O'zbekiston yoshlarning huquq va manfaatlarining kafolatlanganligini, yoshlarning yangi marralarni zabit etishga va ularning yurtimiz taraqqiyotiga munosibhissa qo'shishga zamin yaratmoqda. [1 O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 19-sentabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqidan].

Ko‘rishimiz mumkinki, mustaqillik yillarda yoshlarning fikrlari umuman inobatga olinmagan. Ularga katta e’tibor qaratilmagan. Yoshlarga katta e’tibor qaratish kerakligini, ular davlatning asosiy bo‘g‘ini ekanligini prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlab o‘tdi. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi prezidenti sifatida ilk bora imzolagan qonun hujjati –2016-yil 14-sentabr sanasidagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida“ gi qonun ekani ham mamlakatimiz yoshlarining huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar hamda imkoniyatlarni yaratib berish borasidagi ishlarning poydevori bo‘ldi. Darhaqiqat, mamlakatimizda prezidentimiz tomonidan 2021-yil “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash” yili deb e’lon qilinganligi ham bejiz emas. Aynan shu voqeа yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan ilk qadam bo‘ldi deya baralla ayta olamiz.

Prezidentimiz tomonidan 2020-yil 2-martdagi “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilim-ma’rifat va raqamli istisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” PF-5953 farmon bilan Davlat dasturi ishlab chiqildi. Mazkur davlat dasturining 21-bandи ijrosini ta’minalash maqsadida “Yoshlar parlamenti” tashkil etildi. Oliy Majlis Senati huzuridagi Yoshlar Parlamenti a’zolari 100 ta etib, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar Parlamenti a’zolari soni 150 ta etib belgilandi. Hozirgi kunda yoshlar parlamenti bevosita xalqimizning barcha turdagи muammolari yechimini izlash ishlari bilan shug‘ullanib kelmoqda. Prezidentimizning “Aholi vakillari bizdan rozi bo‘lsin” degan fikrlari asosida, avvalambor, Yoshlar parlamenti a’zolarining ezgu faoliyati shuni ko‘rsatadiki, respublikamizning chekka-chekka hududlarida istiqomat qiluvchi aholining yashash sharoitlari o‘rganilib, muammo va kamchiliklari bartaraf etilmoqda. Dunyoning qay bir davlatiga bormaylik, yoshlarga bu kabi imkoniyatlar yaratib berilgani yo‘q. O‘zbekistonimizda esa yoshlar masalasi davlat siyosati darajasida ko‘tarildi. Shuningdek, “Biz parlamentda yoshlarni qo‘llab-quvvatlaymiz” tashabbusi ilgari surilib, xalq deputatlari Kengashi tavsiyasi asosida yosh, fidoyi, azm-u shijoatli yoshlarni Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a’zolariga biriktirish tavsiya etildi. Amalga oshirilayotgan bu kabi ishlar yoshlarning parlament faoliyatida bevosita ishtirok etishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Jumladan, Yoshlar Parlamenti a’zolari Oliy Majlis yig‘ilishlarida ham bevosita ishtirok etadilar. Ular qonun loyihasi tashabbusi bilan ham Oliy Majlisga takliflar kiritish imkoniyatiga ega hisoblanadi. Hozirda ta’lim muassasalaridagi ta’mirlash ishlar ham Yoshlar Parlamenti nazoratida ekanligini aytib o‘tishimiz lozim. Oliy Majlis Senati huzuridagi Yoshlar Parlamenti ilm-fan komissiyasi a’zosi, Yakkabog‘ tumani Kengashi kotibiyati mudiri, deputat Sh. Yusupov o‘z hududida joylashgan 14-IDUMda bo‘lib ta’mirlash ishlarining borishi va sifati bilan tanishdi. Shuningdek, Toshkent viloyati Krasnogorsk

shaharchasi “Tolbuloq”, “Fayzobod”, “Said-ota” MFYlarda joylshgan maktablarning 2024-2025-o‘quv yiliga tayyorgarlik holati, maktablarda olib borilayotgan qurilish ishlari va saylovga ajratilgan binolar holatini o‘rganish maqsadida deputatlik nazorat ishlari olib borildi. Bu ishlar yoshlar parlamenti a’zolari nazoratiga olindi. Ular birgalikda muhim vazifalarni hal qilishmoqda. Hozirda aholi vakillari tomonidan yo‘llanayotgan murojaatlar hech qachon e’tiborsiz qoldirilmayapti. Barcha turdagи muammo va kamchiliklar joyida hal qilinmoqda. Yo‘llangan murojaat yuzasidan holatni o‘rganish ishlari yoshlar tomonidan yuqori saviyada olib borilmoqda. Mamlakatimizning qay manzilini olib qaramaylik, qaysi bir joyga bormaylik, barcha hududlarda yoshlar faoliyati uchun qulay sharoitlar ta’minlab berilmoqda. Ayniqsa, yoshlarga oid siyosat respublikamizning har bir viloyati, har bir shahri va qolaversa har bir qishlog‘iga ham yetib borganini ta’kidlab o‘tish lozim. Bunday sharoitlardan oqilona foydalanayotgan yoshlar har tomonlama o‘z iste’dodini ko‘rsatishga, har sohada bilim, ko‘nikma va tajribalarini oshirishga, yuqori marralarni matonat bilan zabit etishga astoydil kirishgan. Mamlakatimizda barcha siyosiy jarayonlar yuqori saviyada va katta mas’uliyat bilan amalga oshiriladi. Jumladan, yaqin kunlarda mamlakatimizda siyosiy jarayon prezidentlik saylovi bo‘lib o‘tishi kutilmoqda. Saylovga tayyorgarlik ishlari ham jadal olib borilmoqda. Respublikamizning har bir hududida saylov okruglari tashkil etilib, saylovoldi targ‘ibot va tashviqot tadbirlarini amalga oshirilyapti. Shuni ham ta’kidlab o‘tishimiz joizki, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Saylov komissiyasining 2021-yil 14-avgustdagи No 1099 qarori bilan tasdiqlangan 13-Qashqadaryo okrug saylov komissiyasi a’zolari tasdiqlandi. Quvonarli tomoni shundan iboratki, saylov komissiyasi a’zolari safida bir nechta, har tomonlama o‘z salohiyatlarini namoyon qila olgan yoshlar ham bor. Ular orasida Shodmonov Davron, Alianova Malika, Radjabav Rustam, Bo‘riyev Ulug‘bek, Inatov Ibrohimlarni ta’kidlab o‘tishimiz mumkin. Senat huzuridagi Yoshlар parlamenti maslahat Kengashi a’zosi Kamoliddin Akbaraliyev Toshkent viloyati, Ohangaron shahridagi 1-umumta’lim maktabining 11-sinf o‘quvchisi hisoblanadi. U joriy yilning 20-21-aprel kunlari Qozog‘istonning Nur-sulton shahrida MDH davlatlari o‘rtasida o‘tkazilgan “Yilning eng yaxshi yosh olimi –2021” xalqaro tanlovida ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha 1-o‘rinni qo‘lga kiritdi. Bilimdon o‘quvchi mazkur xalqaro tanlovda “Zamonaviy ta’limni rivojlantirish” bo‘yicha ilmiy ishi bilan ishtirok etdi. Ilmiy ishga kiritilgan maktablardagi ta’limni rivojlantirish va bu sohaga zamonaviy ta’limni tatbiq etish bo‘yicha o‘z fikrlari hakamlar tomonidan yuqori baholandi. Ushbu ilmiy ish natijasida yosh izlanuvchi “Yilning eng yaxshi yosh olimi” deb topildi. Bu kabi yuqori cho‘qqilarning zabit etilishi, o‘sib kelayotgan yosh avlod uchun ilhomlantiruvchi manbaa bo‘lib xizmat qiladi. Bu kabi yutuqlar Yangi O‘zbekistonimizning chiroyiga chiroy, ko‘rkiga ko‘rk qo‘shadi, albatta. Yutuqlarning

davomiyligi sifatida Oliy Majlis Senati huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zosi N.Ahmedova boshchiligidagi Xorazm viloyatida Vatanimiz mustaqilligining 30 yilligi munosabati bilan Respublika Yoshlar markazi Xorazm viloyat bo'linmasi Inklyuziv ta'lim va Kulolchilik to'garaklarida ko'tarinki kayfiyatda bayram tadbiri tashkil etildi. Tadbir davomida Kulolchilik to'garagida naqshlar tanlovi tashkil qilinib, milliyligimiz aks etgan ijodiy ishlar sohiblariga esdalik sovg'alari topshirildi. Mustaqilligimizning 30 yillik shukuhi "Guliston" MFY da Oliy Majlis Senati huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zosi, deputat Shohrux Sharopov ishtirokida davom etmoqda. U mahalla ahlini bayram bilan qutlab, bayram sovg'alari ulashdi. Shuningdek, ularni qiynab kelayotgan ko'plab muammolar o'rganildi. Aholi vakillariga saylov jarayonlarida munosib ishtirok etish to'g'risida tushunchalar berildi. Yurtdoshlarimizning tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishi uchun Prezidentimizning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan bo'lgan uchrashuvida aytib o'tgan imtiyozlari to'g'risida ma'lumotlar berildi. Oliy Majlis Senatining Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi majlisi bo'lib o'tdi. Ushbu majlisda Senat huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zolari faol ravishda o'zlarining takliflari bilan ishtirok etishdi. Mustaqilligimizning 30 yilligi bayrami arafasida prezidentimiz farmoniga asosan bir guruh jonkuyar va faol insonlar "O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligi" ko'krak nishoni bilan taqdirlanishdi. Bu mukofotni prezidentimiz o'z egalariga tantana bilan topshirdi. Xursand qiladigan tomoni shundan iboratki, ko'krak nishoniga sazovor bo'lganlar ichida yoshlar ham bor. Oliy Majlis Senati huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zosi Nilufar Ahmedova, Sherzod Yarikulov, Shohrux Alibekov, Bekzod Djalilov, Bobomurod Ochilov, Rayxon Karimova, Shuxrat Yusupov, Shuxrat Djurakulov, Davronbek Hakimov, parlament raisi o'rribbosari, ilm-fan, madaniyat va kitobxonlik masalalari komissiya raisi Sevara Maxmudova, parlament, ilm-fan komissiyasi a'zosi Jamila Barataliyevalar ham ko'krak nishoni sohibi bo'lganlar ro'yxatida o'zlarining munosib o'rinnarini egallashdi. Prezidentimiz Yangi O'zbekistonning poydevorini yaratib berdi. Biz yoshlar endilikda Yangi O'zbekistonimizning ko'rakam binosini barpo etishdek mas'uliyali vazifani ado etishimiz zarur. Bu kabi ishlarni amalga oshirishda yoshlarimizga bevosita o'z sohalari bo'yicha katta tajribaga ega insonlar yo'l-yo'riq ko'rsatishadi. Yangi O'zbekistonimizda yoshlarga yangicha nazar!

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. "Taraqqiyot strategiyasi" markazi, [www.strategy.uz](http://www.strategy.uz).
2. Firuza Muhiddinova, "Yangi O'zbekistonning kelajak yoshlari: imkoniyat va huquqiy kafolat" maqolasi, [yuz.uz](http://yuz.uz).
3. "Yoshlar parlamenti qanday tashkil etildi? Maqsad va vazifalari nimalardan iborat?" maqolasi, [zarnews.uz](http://zarnews.uz).
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining Axborot xizmati, [www.senat.uz](http://www.senat.uz).

5. “Yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” farmoni, 13.07.2021-yil, PF-6260.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Yoshlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruzasi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis huzuridagi Yoshlar Parlamenti Axborot xizmati, yoshlar.senat.uz.
7. Kenjayev Sh, Asatulloev A, Falsafa o’quv qo’llanma. T., - 2024, NIFMCHJ.
8. Kenjayev Sh Yoshlar ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishda badiiy adabiyotning o’rni. Monografiya. T., - 2022 Innovatsion – Ziyo.
9. Kenjayev Sh Ma’naviy-ma’rifiy ishlar metodikasi. T., - 2024. Metodist nashriyoti.
10. Kenjayev Sh Yoshlarni ma’maviy-axloqiy tarbiyalash muammolari. Monografiya. T., - 2022 Innovatsion – Ziyo.